

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022



ERNEST XEMINGUEY  
(1899-1961)

Chol qushlar va zimlessa, belirin o'sha qoldirg'ochlarga achiqib ketar va qushlar turmushil, qirin-qora va katta kuchli qushlarni hisobga olmayardagi, bizning kuri kechirishimizga qarayardida, ham juda sige. Okean gohisa shu qadar ham berishni bolar elan, hime uchun qushlarni manz bi dengiz qoldirg'ochlari singan nozik va shikasta qilib jarayganler. Okean sadoq va zo'zal, urmo u zibo tozakdan shunday shaf-qatsiz bolib ketadi, uning ustini ozig ilminda charyz urib chonig'is, olib va mangli ovoz bilen bir-birlariga jar belis uchjan su qushlar ungi intillaten bentnoye salib va mohi ko'rinishi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI



CONFERENCES.UZ

# AVGUST №43

Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

 +998 97 420 88 81 +998 94 404 00 00 [www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz) [www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
8-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-8**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

**1. Maqsuda Yusupova**

MUDRAGAN ARUZNI UYG'OTGAN SHOIR ..... 7

**2. Palvanova Mehriban Baltabayevna**

YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI ..... 9

**3. Yusupova Iqbol Axmed qizi**

ONA TILIMIZ SOFLIGI YO'LIDA FIDOKOR BO'LAYLIK! ..... 11



## АДАБИЁТ

### MUDRAGAN ARUZNI UYG`OTGAN SHOIR

**Maqsuda Yusupova**

Xorazm Viloyati Xiva shahar  
10-son umumiy o`rta ta`lim maktabining  
ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Erkin Vohidovning aruz vaznida yozilgan she`riy asarlari, ularda ilgari surilgan g`oya, shoir she`riyatiga xos bo`lgan nafis o`xshatishlarning o`ziga xosligi haqida to`xtolib o`tilgan.

**Kalit so`zlar:** aruz, sher`, vazn,g`azal,qahramon, ruhiyat, hissiyot, ijod,shoir,janr, oshiq, timsol, qo`schiq.

Erkin Vohidov she`rlar, doston va dramalar yozgan shoir sifatida emas, balki mudrab qolgan aruz vaznnini qayta uyg`otgan g`azalnavis sifatida adabiyot gulshanida chuqur iz qoldirgan. Shoirlar aruzda ijod qilishga botinolmay qolgan bir paytda Erkin Vohidov aruz janrida katta jasorat bilan insoniy tuyg`ularni kuylagan, haqqoniy tuyg`ulardan to`lib toshgan, vazn talablariga mos keladigan, sof zamonaviy o`zbek tilida bitilgan yetmishga yaqin g`azalni o`z ichiga olgan “**Yoshlik**” devonini e`lon qildi. Shoir devonidagi g`azallar sodda va ravon, qo`schiqdek o`qiladi. Gazal qahramonlari nafaqat oshiq timsolida, balki ijtimoiy hayotga befarq qaray olmaydigan davr kishisi sifatida ham shakllangan Erkin Vohidov ijod cho`qqisiga chiqish bilan birga insoniylik cho`qqisini ham zabt etgan inson ekanligini ko`p shoir-u, yozuvchilarimiz o`z xotiralarida ko`p bor ta`kidlab o`tishgan. “*Erkin Vohidov she`riyatida adabiy mavzular xazinasiga aniq zamon va makon kaliti orqali kirib boriladi. Xalqimz keyingi davrlar mobaynida bosib o`tgan va o`tayotgan goh mashaqqatli, goh armonli, goh tug`yonli, goh iftixorli yo`llarining manzara va ohanglari, sadolari Erkin Vohidov she`riyatida mujassamdir* “. (Abdulla Oripov) Shoirlik bu shirin jondan kechmoqdir, Limmo-lim fidolik mayin ichmoqdir. O`zni tomchi-tomchi va zarra-zarra, Elga qurban qilib eng so`nggi karra, Armon bilan demoq: “Ey ona yurtim, Kechir, xizmatingni qilolmay o`tdim. “*Erkin Vohidov dilbar rubobiy taronalari, asr armoni, fig`oni darajasiga ko`tarilgan dostonlari qatori g`oyat nozik lutf, beozor qochirimlar, ayni paytda istehzo, kinoya-kesatiqlar, o`tkir ijtimoiy pafos bilan yo`g`rilgan hajviyoti, Benazir tabassumi bilan ham elimiz uchun ardoqlidir*”. (Umarali Normatov) Qalbida Vataniga bo`lgan muhabbat cheksiz bo`lgan, insonlarning farovon hayotini har narsadan ustun ko`radigan, shuningdek, muhabbat borasida dengizday qaysar, ummondek cheksiz, tog`lardek ulug`vor bo`lgan insonni o`z umrining qahramoni deyish mumkin. Erkin Vohidov ham shunday insonlardan edi desak yanglishmagan bo`lamiz. Mustaqillikka erishib o`zligini, o`zbegini yaratayotgan xalqimiz esa bunday insonlarni ulug`laydi. Erkin Vohidovning hayot yo`li, yaratgan asarlari va ulardagи yetakchi g`oyalar har bir inson qalbida ezgu fikrlarga yondosh tarzda yashashiga ishonamiz. Tabiatan g`oyat nazokatli shaxs bo`lgan Erkin Vohidov adabiyot ixlosmandlari ko`nglidan nafis va dolg`ali hamda isyonkor shoir sifatida joy oldi. XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Erkin Vohidov yetakchiligidagi adabiy avlod asta-sekin inson shaxsi, uning tuyg`ulari tasviriga e`tibor qarata boshladi. Insonning ruhiy kechinmalari, turfa sezimlari poetik tasvir obyektiga aylandi. Bu hol esa, tabiiy ravishda, davrga to`g`ri kelmaydi deb, chetga suribroq qo`yilgan aruzning jonlanishiga imkon yaratdi. E.Vohidov g`azalning xaloskori yanglig` paydo bo`lib, uning jonsizlanib qolgan taniga yangicha nafas bag`ishlaganday bo`ldi. Shoir “**Yoshlik devoni**” kitobining “Debocha”sida eski poetik shakl yangi gap aytishga yaramaydi deydigan kishilar bilan bahsga kirishadi: Ey munaqqid, sen g`azalni ko`hna deb kamsitmagil, Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida. Shoir inson qonida azaldan mavjud bo`lgan sevgi tuyg`usi bugun ham yashayotgani yanglig` uning ifodasiga moslashgan g`azal ham yashashga haqli ekanini mantiq jihatidan ishonarli, ifoda jihatidan go`zal yo`sinda ko`rsatdi. Shoir



g`azalni shunchaki she`riy janr rutbasidan yuksaltirib, mangu tuyg`ularning poetik ramzi hamda har qanday fikrni ifodalay olishga qodir badiiy vosita darajasiga ko`taradi. Ta`kidlash kerakki, Erkin Vohidov, umuman, aruz vazni, xususan, g`azal janrini tiklash uchun emas, balki o`z o`yu tuyg`ulari aynan g`azalda moddiylashishga moyil bo`lgani uchun bu janrga qo`l uradi. E.Vohidov g`azallarida oshiqning dil rozlari, ma`shuqaning ta`rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig` har qancha mubolag`ador, serbo`yoq bo`lmasin, undagi timsollar bugunning odami ekanı anglashilib turadi. Ular “zamon zayli”ni hisobga oladigan, o`y-fikri, tuyg`ulari bugungi odamlarga tushunarli bo`lgan kishilardir. Ma`lumki, mumtoz she`riyatda vaqt tushunchasi ancha nisbiy bo`lgan. Chunki mumtoz shoirlar o`tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo`l urmagانlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o`z davrining belgilari ko`zga tashlanib turmaydi. E.Vohidovning g`azallarida esa bugunning nuqsi aks etadi. Shoiring «Fursating» g`azali o`zida davr belgisi, zamondoshlar tabiatini aks ettirishi jihatidan xarakterlidir. G`azalning birinchi baytidayoq davr ruhi ko`zga yaqqol tashlanib turadi: **“Fursating yetmaydi doim, hech qachon yetgan emas, Mehnating bitmaydi doim, hech qachon bitgan emas”**. Bu misralarda davrning tezkor va shiddatli qarqin (sur`at)i, undan orqada qolmaslik ilinjida halloslab borayotgan chog`dosh tabiatini namoyon bo`ladi. Shoiring tinimsiz o`zgarib turadigan insonning hech o`zgarmas intilishi – kamolot haqida to`xtalar ekan, uning ham hech qachon erishib bo`lmas orzu ekanini ishonarli aks ettiradi: “Intilar borliqni inson barkamol etmoq uchun, Ne ajab, insonni borliq barkamol etgan emas”. O`zi komil bo`limgani holda borliqni mukammallashtirishni da`vo qiladigan inson tabiatidagi chigallik shu yo`sın tasvirlanadi. Shoiring tasvir mahorati yuqorida misralar so`ngida kelgan «etmoq uchun» va «etgan emas» singari felli birikmalarga zidlash ma`nosini yuklay bilganida ham ko`rinadi.

Darslarda yoki qo`shimcha mashg`ulotlarda, sinfdan tashqari o`qish soatlarida Erkin Vohidov ijodiga oid ushbu qo`shimcha manbaalardan o`rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo`ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
2. Yo`ldashev Q. Maktabda Erkin Vohidov ijodini o`rgatish. Til va adabiyot ta`limi. 2006 y. 6-son.
3. Amaldagi adabiyot darsliklari.
4. Ta`limga oid saytlar



## YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

**Palvanova Mehriban Baltabayevna,**

Xorazm viloyati Bog`ot tumani

3-IDUMI ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Telefon: +998995417481

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma`rifat, tarbiya, oshiq.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma`naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to`g`ri yo`lga da`vat etishdir. To`g`ri yo`l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o`zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo`liga kirmog`i, butun kuch va vujudini shu yo`lga qaratmog`i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma`rifat bosqichlaridan o`tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o`rinli bo`ladi. Shoир bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o`zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta`kidlash o`rinli bo`ladi. Badiiy asarlar ta`sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o`ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalarini mohiyatini anglash, insonga xos tuyg`ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o`yash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma`naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go`yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o`xshaydi.O`sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag`ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag`ishlaydi.O`qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdirlar, chigal qismatlar ro`parasiga olib chiqadi.Asar voqealari bilan ulg`ayib, mashaqqatli yo`llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo`lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo`lib borayotgan mehrning ulug`ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning “Qorako`z Majnun” hikoyasini o`qib guvoh bo`lganmiz.Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo`lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o`qirkamiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg`on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo`rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarni unutib qo`yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoир hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo`lsa, bunday sabrli ishq egasining “mahshar kunida armoni” bo`lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida “Nafsni tepib dargohiga loyiq bo`lg`il” deb ta`kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko`tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o`tga tushding, kuyib o`lding, Parvonadek jondin kechib axgar bo`lding, Dardga to`lding, g`amga to`lding, telba bo`lding, Ishq dardini so`rsang hargiz darmoni yo`q. Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko`rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o`zgarishlar bo`ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisolai o`tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho`g`) bo`lgan kapalakka o`zshatadi. Eng muhimi, ishq o`tida dard, g`am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho`ir ta`biri bilan aytganda “bu dardni bedavo derlar” (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta`riflab Alisher Navoiy “Mahbub ulqulub” asarida yozadi: “buni ko`rmagan kishi bo`lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...”. Shu ishq tavsifiga bag`ishlab Navoiy “Layli va Majnun” dostonini tozgani sizga ma`lum. Ahmad Yassaviy ta`kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta`kidlaydi – “Olloh haqqi bu so`zlarni yolg`oni yo`q”. Yassaviy har vaqt nafs



haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo’li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo’llaydi. Adib to’g’ridan to’g’ri nafsga qarshi kurashni , uning yo’rig’iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsning domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo`lig`a kirgan kishi rasvo bo`lur, Yo’ldan ozib, toyib, to’zib gumroh bo`lur. Yotsa, qo’psa shayton bilan hamroh bo`lur, Nafsn tepkil, nafsn tepkil, ey badkirdor.

**Foydalanimadigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. B. To’xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.



ONA TILIMIZ SOFLIGI YO'LIDA FIDOKOR BO'LAYLIK!

**Yusupova Iqbol Axmed qizi**

Xorazm vil.Bog'ot tumani.

6-son maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel nomer:+998932070644

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash to'g'risidagi mazmuni aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** "o'zbek tili", Davlatimiz qonunlari, aholi, sheva, Mustaqillik.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida 2019-yil 21-oktabrda O'zbekiston Respublikasining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5850-son Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiyligi cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi, barcha davlat organlarida davlat tilida ish yuritish shart qilib qo'yildi. Davlat organlarida rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va davlat tilida ish yuritishni rivojlantirish bo'yicha maslahatchi lavozimi joriy qilindi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'naliш va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida 2020-yil 20-oktabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni bilan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020-2022 yillarda amalga oshirish dasturi, 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'naliшlari tasdiqlandi. 2020-yil 10-aprelda esa Davlatimiz rahbari tomonidan "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni imzolanib, 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi. Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti anjumanida jahon hamjamiyatiga qarata tarixda birinchi marta hammani birday to'lqinlantirgan, O'zbekiston g'ururini yuksakka ko'targan tarixiy nutqini o'z ona tilimizda so'zladi. Ma'lumk, taniqli olim German Vamberi "Abulg'oziy Bahodirxonning ko'pgina ishlari Boburni xotirga tushiradi, jahon uning "Shajara turk" nomli tarixiy asari uchun minnatdordir", deb yozgandi o'zining "Buxoro yoxud Movaraunnahr tarixi" asarida. Bunda olim Bobur bilan Abulg'oziyni el-yurtni obod va ozod ko'rish ishtiyoyqida astoydil harakat qilgan ikki davlat arbobi sifatidagi o'xshash jihatlarini, ayni paytda, ularning tengi yo'q ijod namunalarini nazarda tutgan. Buning boisi juda qadim voqeа va hodisalar haqidagi ma'lumotlar, yozma manbalar deyarli saqlanib qolmaganligida, mavjudlari esa asosan inson ruhiyati, aqlu idroki ilohiyot bilan uyg'unlashib, unga bir irmoq singari qo'shilib ketishidadir. Eng muhimmi, bu afsonalarni kim qanday tushunishida emas, balki ular ilm koni, hikmat xazinasi ekanlididir.

**Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Ta'lim taraqqiyoti journali 7-maxsus son. Umumiyligi o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lim). Toshkent, 1999.
2. Ta'lim taraqqiyoti journali 1-maxsus son. Umumiyligi o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi (Ona tili). Toshkent, 1999.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000